

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2020.F.72.08. RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**ZOYIROV ERKIN XALILOVICH**

**YA'QUB CHARXIYNING FALSAFIY VA**  
**IJTIMOY – SIYOSIY QARASHLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**UO‘K: 1 (091) (5) Charxiy: 304.42**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Zoyirov Erkin Khalilovich**

Ya'qub Charxiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari.....3

**Зойиров Эркин Халилович**

Философские и социально-политические взгляды Яъкуба Чархи.....33

**Zoyirov Erkin Khalilovich**

Philosophical and socio-political views of Ya'qub Charkhi .....65

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of works published .....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2020.F.72.08. RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**ZOYIROV ERKIN XALILOVICH**

**YA'QUB CHARXIYNING FALSAFIY VA**  
**IJTIMOY – SIYOSIY QARASHLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2022.1.DSc/Fal116 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Navro'zova Gulchira Negmatovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Namozov Bobir Bahrievich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Karimov Sayimnazar Karimovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Mahmudova Guli Tilabovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil "23" Noyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (383 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "10" Noyabr kuni tarqatildi.  
(2023 yil "10" noyabr dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Shadmanov K.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipova O.T.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda turli xil axborot xurujlar inson qalbi va ongini zaharlab, ularni izdan chiqaradigan salbiy mafkuraviy ta'sir vositasiga aylanayotgan vaziyatda yoshlar ongini yot, vayronkor g'oya va mafkuralardan himoya qilish, ularda umuminsoniy tamoyil va qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda olam va insonning ichki dunyosiga xos intellektual va amaliy faoliyat natijalarini anglashga imkoniyat yaratishi bilan qadrlil hisoblangan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari etaklash xususiyatiga ega, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmui bo'lgan bebaho ma'naviy merosdan foydalanish ijobiy samara beradi. Shu nuqtai-nazardan Ya'qub Charxiy ilmiy merosidagi insonni komillik, ezgulik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hamda g'iybat, yolg'onchilik, baxillik, kibr, zinakorlik kabi illatlarni bartaraf etishda g'oyaviy ahamiyatga ega qarashlarining falsafiy mohiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va markazlarida umuminsoniy sivilizatsiya, madaniyatidan o'rin olgan Sharq xalqlari tarixi, falsafasi, ayniqsa islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlangan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya va davlat boshqaruviga oid qarashlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai-nazardan ma'naviy merosdagi imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo'stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish, umuminsoniy madaniyatlarni uyg'unlashtirishning ilmiy asoslarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Ya'qub Charxiy g'oyalarning mazmun-mohiyati, vorisiylik an'analariga sodiq qolish, qadrlash, ma'naviy borliq muammolari hamda Naqshbandiya tariqatiga xos xususiyatlarining ahamiyatini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida tarixiy-madaniy merosimizni qayta tiklash va yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, mutafakkir hamda mutasavviflarning ilmiy merosi asosida yangi jamiyat barpo etish, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. "Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma'rifatli jamiyat to'g'risidagi g'oyalari, orzu umid va armonlari, o'ylaymanki, ko'pchiligimizga yaxshi tanish... Ajdodlarimizning ana shunday asriy intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarurligini yaxshi anglaymiz"<sup>1</sup>. Xususan, Ya'qub Charxiyning davlatni boshqarish, ma'rifat va ilmparvarlik, halollik, kamtarlik, poklik kabi fazilatlarni shakllantirishga oid g'oya va qarashlarining "inson – jamiyat – davlat" prinsiplari asosida ijtimoiy davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligi hamda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashdagi rolini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 301.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

O‘rta asrlarda o‘zining tasavvufiy qarashlari bilan shuhrat qozongan buyuk mutasavviflarining ma‘naviy merosi va tasavvufiy-falsafiy qarashlari jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Islamic Supreme Council of America, (AQSh), Mc.Gill University, Institute of Islamis Studies (Kanada), Al-Azhar University (Misr), Rossiya FA qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari instituti (Rossiya), Institute of Central Asia, Sorbone University (Fransiya), Cembridge, Oxford, London University (Buyuk Britaniya), Istanbul University (Turkiya) shuningdek, Tojikiston fanlar akademiyasi falsafa va sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutlari hamda Tojikiston davlat milliy universiteti (Tojikiston), O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilgan.

---

<sup>2</sup> Qarang: A.Арберри. Суфизм. Мистики ислама. - М. 2002., Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе. - М. 2002., А.Зарринкуб. Исламская цивилизация. М.2004., А.Хисматуллин. Исламский мистицизм и хаджаган-накшбандия//Мудрость суфиев. - С-Птб. 2001., А.Мухаммадходжаев. Идеология накшбандизма. - Душанбе, 1991., С.W.Ernst. Teachings of Sufism. - London. 1999., M.Fakhry A History of Islamic Philosophy. - New York, 1983. Shuningdek, dissertatsiya mavzusiga doir xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <http://www.azhar.edu.eg/en/>; <https://www.nottingham.edu.my/index.aspx>; <https://khalilcenter.com/ramadan>; <https://www.timeshighereducation.com/world-universityrankings/sorbonne-university> kabi elektron resurslar manbalari asosida tayyorlandi

Tasavvuf ta'limotining falsafiy jihatlarini o'rganish jahondagi ko'pgina ilmiy markazlar va oliy o'quv yurtlari tegishli bo'linmalarida olib borilayotgan tadqiqotlardagi ustuvor yo'nalishlardan biridir, jumladan Turkish National Association of Transpersonal Psychology and Psychiatry (Turkiya), Malaysia International Islamic University (Malayziya), University of Nottingham (Buyuk Britaniya), Khalil Center (AQSh), Islamic Psychological Clinic (Buyuk Britaniya), Sarbonna University (Fransiya), King Abdullah University of Science and Technology (Saudiya Arabistoni), Turkish Radio Sufism and Psychology (Turkiya), Faculty of Psychology, Islamabad International Islamic University (Pokiston), World Interfaith Corps (IIPC), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Germaniya), Saint Petersburg State University (Rossiya), Mugla Sitki Kochman universitesi (Turkiya) mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Sharq falsafasining me'yoriy-axloqiy tendensiyalari, Naqshbandiya tariqatini tarixiy-falsafiy jihatdan yoritish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan: Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosi, xususan, Ya'qub Charxiy va Bahouddin Naqshband ilmiy merosidagi diniy bag'rikenglik, ruhiy-ma'naviy uyg'unlikni targ'ib qilishning mohiyati ilmiy asoslangan (Islamic Supreme Council of America, AQSH); Naqshbandiy irfoniy qarashlarining umumtasavvufiy tamoyillari asoslangan (Al-Azhar University (Misr); Naqshbandiya tasavvufiy tariqati namoyondalarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, irfoniy g'oyalarining inson kamolotiga ijobiy ta'siri yoritilgan (Rossiya FA qoshidagi Sharq qo'lyozmalari instituti. Rossiya); Buyuk mutasavviflarining ma'naviy merosi va tasavvufiy-falsafiy qarashlari zamonaviy tadqiqotlar orqali tadqiq etilgan (Cembridge, Oxford, London University (Buyuk Britaniya); Xojagon-Naqshbandiya ta'limotining falsafiy tamoyillarini tadqiq etish borasidagi fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan (Istanbul University, Turkiya); Ya'qub Charxiy ilmiy merosining sharhlari ishlab chiqilgan (Tojikiston davlat milliy universiteti, Tojikiston); Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi) va Sharq mutafakkirlari ilmiy merosini zamonaviy tadqiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (O'zbekiston).

Jahonda tasavvufning o'rganishga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafaning metodologik muammolari va metodik arsenalini yaratish; tasavvuf ta'limoti bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar tahlili; tasavvufning tarmoqlararo fan sohasi sifatidagi paydo bo'lishi va rivojlanishi; tariqatlardagi individual va jamoaviy muammolarning tavsifi; tariqatlarda nafs tarbiyasi; shaxs kamolotida tasavvufning roli; Naqshbandiylik va uning vakillari qarashlarida diniy-irfoniy, dunyoni bilish, qalb pokligi to'g'risidagi qarashlarini ochib berish; tasavvufiy tariqatlarning nazariy g'oyalaridan zamonaviy yoshlarning axloqiy tarbiyasida foydalanish; buyuk mutafakkirlar ilmiy merosining bugungi ahamiyatini ochib berish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ya'qub Charxiy shaxsiyati va ijodiy faoliyati tarixning barcha davrlarida turlicha yo'nalishlarda tadqiq etib kelinmoqda. Muhammad-Nazir Randja Ya'qub Charxiyning "Sharhi Asmo ul-husna",

“Huroiyya”, “Risolai abdoliya”, “Risolai unsiya” asarlarini o‘rganib, “Rasoili Ya‘qub Charxiy” deb nomlangan to‘plamni ikki marta nashrdan chiqaradi. Muhammad Amin Riyohi, Topbosh Osman Nuri olib borgan tadqiqotlarida tasavvufning mohiyati, tariqatlar, Naqshbandiya ta‘limoti hamda Ya‘qub Charxiy qarashlaridagi yuksak axloqiy fazilatlarining mohiyati ochib berilgan. Najdat To‘sun, Hasan Komil Yilmaz tadqiqotlarida Ya‘qub Charxiyning hayoti, ilmiy merosi va Naqshbandiya tariqati silsilasidagi o‘rni haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Yurgen Paul, Haziniy tadqiqotlarida naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi va tarqalishi, Ya‘qub Charxiy ta‘limotining ayrim jihatlarini haqida fikrlar bildirilgan<sup>3</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida A.Xismatulin, A. Knish, G.Eskarxanov, Yusuf Jolandan Mansur, S.Maxmadullayev, Z.Nabotov, Ibrohim Naqqosh tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Ya‘qub Charxiy ilmiy merosining tasavvuf ta‘limotida tutgan o‘rnini ochib berishda tarixiy ahamiyat kasb etgan<sup>4</sup>.

Mamlakatimizda O.Bo‘riev, H.Islomiy, E.Karimov, G.Navro‘zova, S.Karimov, M.Razzoqova, J.Xolmo‘minov, O.Sharipova, N.Safarova, B.Namozov, A.Boltaev, X.Raxmatovning ilmiy ishlari Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, Ya‘qub Charxiy ta‘limotining falsafiy xususiyatlari, nazariy-metodologik masalalariga bag‘ishlanganligini alohida ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiq<sup>5</sup>. Bu sohada qilingan tadqiqotlar orasida M.Razzoqovanning “Mavlono Ya‘qub Charxiy” nomli monografik asari hamda “Ya‘qub Charxiy – naqshbandiya tariqatining yirik vakili”, “Mavlono Ya‘qub Charxiyning ustozini”, “Tafsiri Charxiy”

---

<sup>3</sup> Rasoil-i hazrat-i Mavlana Ya‘qub-i Charxi / Pod red. Muxammad-Nazira Rанджха. Xanaqax Sираджийа Накшбандийа-Муджаддийа, 1430 л.х./2009 (1-е изд.); Мавлана Яа‘куб Чархи. Рисала-йи абдалийа / Под ред. Мухаммад Назира Ранджха. Исламабад: Маркази тахикати фарсийи Иран ва Пакистан, 1398 л.х./1978.; Наджм-и Рази. Мирсад ал-‘ибад / Под ред. и с примеч. Мухаммад-Амина Рийахи. Тихран: ширкат-и Интишарат-и ‘илми ва фарханги, 1365/1986 (2-е изд.); Topbosh O.N. Sufizm from Iman to Ikhsan. Translation from Turkic. –M.: SAD, 2008. -488 pp; Najdat Tўsun. Olтин Силсила. Накшбандийлик тариқатининг олтин силсиласи. – Тошкент: Qamar – media, 2022. – 224 б. Хасан Камилъ Йўлмаз. Золотая Сильсия. Цепь Преемственности шейхов тариқата Накшбандийа-Халидийа. 1-е изд. — М.: «Издательская группа «Сад»», 2009. - 248 с; Paul, Jürgen. Doctrine and Organization: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin (Berlin: Das Arabische Buch, 1998; Anor, 1).

<sup>4</sup> Хисматуллин А. Метод компиляции средневековой рисалы на примере «Рисала-йи абдалиийа» Яа‘куба Чархи. ИРАН-НАМЕ, - № 4, 2009. С.64-82; Книш А. Мусулмон тасаввуфи. / Тарж. Қодиркул Рўзиматзода. – Тошкент: Фан, 2022. – 275 б.; Эскарханов Г.Л. Суфизм на Северо-Восточном Кавказе: возникновение, идеология, практика. / Диссертация ... кандидата философских наук. - Грозный, 2011. - 185 с.; Махмадулаев С. О некоторых этических точках зрения Якуба Чархи. // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук. – Душанбе, 2015. – С.34-47; Юсефи Джонландан Мансур. Мазары Хорасана и Мавераннахра эпохи Тимуридов: XIV-XV вв. / Автореферат дисс. на саискание ученой степени канд. ис.наук. – Душанбе, 2009. -26 стр; Наботов З. Проблема человека в Накшбандизме. – Душанбе, 2002. -125 стр; Иброҳим Наққош. “Мавлоно Яъқуби Чархий ва ҳафт пири накшбандия”. – Душанбе.: Истеъдод, 2018. – 91 с.

<sup>5</sup> Бўриев О. Яъқуби Чархий // Мулоқот. -Тошкент: 1995. - № 7-8. – Б. 42-44; Ислоний Ҳ. Алишер Навоий ва Хоразм авлиёлари. – Тошкент: Фан, 1998. – 66 б.; Каримов Э. Роль, место и социальные позиции духовенства Мавераннахра в XV в. / Автореф. дисс. ... канд.ист. наук. –Т.: 1990. – 159 с.; Наврўзова Г. Баҳоуддин Накшбанд таълимоти Яъқуби Чархий тавсифида // Тафаккур зиёси. – Тошкент: 2020. -№ 2. – Б. 80-81; 72. Каримов С. Шарқ ижтимоий тафаккури тарихидан. - Тошкент, “Файласуфлар миллий жамияти”, 2016. – 460.; Раззокова М. Мавлоно Яъқуби Чархий. – Тошкент: Muharrir, 2013. - 112 б.; Холмўминов Ж. Накшбандия таълимоти ва Марказий Осиё халқлари маънавий бирлиги. –Тошкент: Yangi Nashr, 2018. – 280 б.; Болтаев А. Мавлоно Яъқуби Чархий ўз устози Баҳоуддин Накшбанд. // Исломи тафаккури. - Тошкент, -№ 1/2, 2020. –Б 31-37; Рахматова Х. Хожа Аҳрори Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Тошкент: “ADIB”, 2014. – 128 б.



asarining turkiy tarjiması kabi maqolalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Ya'qub Charxiyning "Risolai qudsiya" ("Qudsiy kalimalar haqida risola"), "Risolai abdoliya" ("Abdollar haqida risola"), "Risolai dar manoqib va aqoid" ("Manoqib va aqoid haqida risola"), "Sharhi asmoulloh" ("Alloh ismlarning sharhi"), "Kitob ul-faroiz" ("Meros taqsimi haqida kitob"), "Risolai unsiya" ("Do'stlik haqida risola"), "Tafsiri Charxiy" ("Charxiy tafsiri") kabi asarlari mavjudligi ta'kidlangan<sup>6</sup>.

Mavlono Ya'qub Charxiy ta'limotini o'rganishda G.Navro'zovanning "Bahouddin Naqshband ta'limoti Yaqubi Charxiy tavsifida"<sup>7</sup> maqolasida mutasavvifning ilmiy merosi, risolalarining yozilish tartibi, tasavvufiy qarashlari, komil inson va qalb masalasiga oid g'oyalarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotda Yaqubi Charxiyning "Vuqufi qalbiy shu qadar muhimki, kishi yeb-ichganda ham, yurganda ham, tahorat olganda va namozu Qur'on o'qiganda ham, yozib-chizganda va dars qilganda ham, va'zu nasihat paytida ham, har qanday holatda tokim maqsud hosil bo'lmaguncha, bir lahza ham g'ofil bo'lmasin", degan g'oyasini keltirib, buning hozirgi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Tadqiqot ishida yuqorida nomlari qayd etilgan xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan yuqori ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Tadqiqotda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, Ya'qub Charxiy ma'naviy merosining falsafiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlariga, tasavvuf ta'limoti rivojidadagi o'rni hamda ilmiy-nazariy, metodologik asoslarini ishlab chiqish, uning strukturaviy-funksional jihatdan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro muhandislik texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IV band "O'zbekiston tarixini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muammolari: echim, qiyosiy tahlil" (2020-2025 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Ya'qub Charxiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va komil insonni tarbiyalashdagi rolini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Ya'qub Charxiy hayot yo'li va dunyoqarashi, ma'naviy merosining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish;

mutasavvifning borliqqa oid ta'limotidagi "g'oyalarining falsafiy mohiyatini ochib berish;

<sup>6</sup> Qarang: Razzoqova M. Mavlono Yaqubi Charxiy. – T.: Muharrir, 2013. – B.112.; Razzoqova M. Yaqubi Charxiy – nakshbandiya tariqatining yirik vakili // Sharqshunoslik. T., 1997. - № 8. – B. 117-122; Razzoqova M. Mavlono yaqubi Charxiyning ustosi // Sharqshunoslik. T., 1999. - № 9. – B. 55-57.; Razzoqova M. "Tafsiri Yaqubi Charxiy" asarining turkiy tarjiması // Sharqshunoslik. T., 2000. - № 10. – B. 91-97.; Razzoqova M. Mavlono Yaqubi Charxiy. – T.: Muharrir, 2013. – B. 6.

<sup>7</sup> Qarang: Navruzova G. Bahouddin Naqshband ta'limoti Yaqubi Charxiy tavsifida // Tafakkur zis'i. T., 2020. № 2. – B. 80-81.

Ya'qub Charxiy gnoseologik qarashlarida zikr, "til ilmi", "qalb ilmi" tushunchalarining irfoniy mohiyatini aniqlash;

mutasavvifning Qur'on tafsiridagi g'oyalarning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatini asoslab berish;

Ya'qub Charxiy ta'limotida ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi o'rnini tadqiq etish;

Mutasavvif ta'limotidagi ustoz-shogird tizimining yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Ya'qub Charxiyning "Unsiya", "Tafsiri Ya'qub Charxiy", "Manoqib va aqoid", "Abdoliya" "Sharhi Asmoul husna", "Huroiyya" kabi asarlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Ya'qub Charxiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafa tarixidagi ahamiyati hamda tasavvufiy ta'limotlar bilan umumiy va alohida xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ya'qub Charxiy ilmiy merosiga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida mutasavvifning hayot yo'lida so'fiylik ilmidagi vorisiylik an'anasiga sodiq qolish, qadrlash va keyingi avlodga etkazish mas'uliyati kabi tamoyillar ustuvorligi aniqlangan hamda dunyoqarashining negizida Bahouddin Naqshbandning tushunish va tushuntirish (germenevtik) va Alouddin Attorning tasavvufiy axloq nazariyasi metodologik ahamiyat kasb etgani asoslangan;

Ya'qub Charxiyning "Risolai qudsiya", "Risolai huroiyya", "Sharhi Asmoul husna" asarlarida azaliy va o'tkinchi, boqiy va foniy olam, tabiat, inson, ma'naviy borliq muammolari vujud olami va adam olami (borliq va yo'qlik dialektikasi) asosida ochib berilgani hamda ularning Naqshbandiya tariqatiga xos "vuqufi qalbiy" rashhasi, zikr odobi, hushyorlik, g'aflatdan uyg'onish, "xush dar dam" kabi, Ibn Arabiyning "vahdat ul-vujud" nazariyasidagi qalb borlig'i, xufiya zikr kabi g'oyalari bilan uyg'unligi dalillangan;

mutasavvifning "Risola dar manoqib va aqoid" asaridagi xon va amaldorlarning davlatni boshqarishda o'ziga ravo ko'rganni boshqalarga ravo ko'rish, ezgulik va olijanoblik, saxiylik, xushmuomalalilik, Haq va xalq rizoligi, odillik va saodat, ma'rifat va ilmparvarlik, rahm-shafqat, farosat va basirat kabi o'nta shart va xalqning hukmdor oldidagi huquq va majburiyatlariga oid g'oyalarning "inson – jamiyat – davlat" prinsiplari asosida ijtimoiy davlat barpo etishning xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan maqsadlarini amalga oshirishdagi roli ochib berilgan;

Ya'qub Charxiyning "Tafsiri Ya'qub Charxiy" risolasidagi inson axloqi, fano, qalb pokligiga erishish vositalari, fahsh ishlardan xalos bo'lish kabi g'oyalarning "Dil ba Yoru, dast ba kor" shiorining insonni jisman va ma'nau kamol topishida ezgulik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning me'yordagi yo'li hamda g'iybat,

yolgʻonchilik, baxillik, kibr, zinokorlik kabi illatlarni bartaraf etish va halollik, kamtarlik, poklik kabi fazilatlarni shakllantirish, goʻzal axloq bilan xulqlanish hamda kamolotga erishishda gʻoyaviy ahamiyatga egaligi isbotlangan;

Yaʼqub Charxiyning tasavvuf pirlarining suhbatlari va ustoz-shogirdlik haqidagi “Risolai unsiya” risolasida ilgari surilgan kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashish, nafsni tarbiyalash, ilm-maʼrifatli boʻlish, tahdid va xavflardan ogoh boʻlish, gʻaflat uyqusidan bedorlik, hushyorlik ruhiyatini shakllantirish kabi qarashlarining yosh avlodni yuksak fazilatli insonlar qilib tarbiyalashda, “ustoz-shogird” tizimini joriy etishda, ilm olishda munosib, tajribaga ega boʻlgan ustozni tanlash hamda Yangi Oʻzbekistonda taʼlim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda manbaviy asos sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Yaʼqub Charxiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining obʼyektiv va subʼyektiv omillari aniqlangan hamda uni ilmiy asosda tadqiq etishning komparativistik mezonlarini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mutasavvif dunyoqarashining shakllanishida ustoz Bahouddin Naqshbanning roli, mutasavvif taʼlimotining antropologik, ontologik, gnoseologik tomonlarining tasavvuf taʼlimoti rivojida oʻrni tasniflangan va ularning mantiqiy-funksional xususiyatlari ochib berilgan;

Yaʼqub Charxiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining Sharq va Gʻarbda hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida nazariy-metodologik, oʻquv-uslubiy, innovatsion mazmundagi nazariy xulosalar asoslab berilgan;

Yaʼqub Charxiyning “Tafsiri Yaʼqub Charxiy” va “Risolai unsiya” risolasidagi axloqiy fazilatlar va irfoniy mezonlardan insonni jismoniy va maʼnaviy tarbiyalash, illatlardan xalos etishga oid gʻoyalardan maʼrifiy jamiyat barpo etish, maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash, uzluksiz maʼnaviy tarbiyani amalga oshirish hamda “ustoz-shogird” tizimini takomillashtirishda foydalanishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qoʻllanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan oʻtkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari boʻyicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan boʻlib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual gʻoyalardan Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlar merosini ilmiy tadqiq etish va uning natijalaridan amaliy foydalanish, Naqshbandiya tariqatini ilmiy tadqiq etish, noyob yozma manbalarni kelajak avlodga bezavol etkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirishda, tasavvufning bagʻrikenglik, sabrlik, shukronalik fazilatlarining komil inson tarbiyasidagi nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, ijtimoiy fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, madaniy-maʼrifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, intellektual salohiyatni oʻstirish bilan

shugʻullanuvchi tashkilotlarning faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlarining aholi oʻrtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etishda, buyuk alloma va mutafakkirlar ilmiy merosini yoshlar orasida yanada ommalashtirish, Internet jahon axborot tarmogʻini ma’lumotlar bilan boyitishda, kitoblarni chop etishda, xalqaro tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda xalqaro konferensiyalarni tashkil etishda, buyuk tariximiz haqida axborot-tahliliy va mavzuli telekoʻrsatuvlarni tayyorlashda, shuningdek, “Falsafa”, “Ma’naviyatshunoslik”, “Dinshunoslik” kabi fanlarning nazariy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ya’qub Charxiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafa tarixidagi ahamiyatini ochib berish hamda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi oʻrnini asoslab berish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ya’qub Charxiy ilmiy merosiga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida mutasavvifning hayot yoʻlida soʻfiylik ilmidagi vorisiylik anʼanalariga sodiq qolish, qadrlash va keyingi avlodga etkazish mas’uliyati kabi tamoyillar ustuvorligi aniqlangan hamda dunyoqarashining negizida Bahouddin Naqshbandning tushunish va tushuntirish (germenevtik) va Alouddin Attorning tasavvufiy axloq nazariyasi metodologik ahamiyatga egaligiga doir xulosa va tavsiyalardan Oʻzbekiston Milliy universitetida bajarilgan KA-3-017+KA-5-002-son “Oʻzbekiston falsafa tarixi (3 tomlik oʻzbek tilida) asarining 2-tomini nashrga tayyorlash” (2017-2018 yy) mavzusidagi amaliy ilmiy tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Milliy universitetining 2023 yil 20 maydagi 04/11-3239-son ma’lumotnomasi). Natijada, Ya’qub Charxiy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari falsafiy tahlilning dialektik, germenevtik, tolerantlik asoslari, ob’ektiv va sub’ektiv omillari hamda uni ilmiy asosda oʻrganishning komparativistik mezonlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Ya’qub Charxiyning “Risolai qudsiya”, “Risolai huroiyya”, “Sharhi Asmoul husna” asarlarida azaliy va oʻtkinchi, boqiy va foniy olam, tabiat, inson, ma’naviy borliq muammolari vujud olami va adam olami (borliq va yoʻqlik dialektikasi) asosida ochib berilgani hamda ularning Naqshbandiya tariqatiga xos “vuqufi qalbiy” rashhasi, zikr odobi, hushyorlik, gʻaflatdan uygʻonish, “xush dar dam” kabi, Ibn Arabiyning “vahdat ul-vujud” nazariyasidagi qalb borligʻi, xufiya zikr kabi gʻoyalari bilan uygʻunligiga doir nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalardan Oʻzbekiston musulmonlar idorasi tomonidan buyurtma asosida diniy taʼlim muassasalari uchun tayyorlangan “Tasavvuf”, “Falsafa asoslari” oʻquv qoʻllanmalarining mazmuniga singdirilgan hamda Mir Arab oliy madrasasida diniy soha xodimlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari oʻquv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Din ishlari boʻyicha qoʻmitasining 2023 yil 22 fevraldagi 02-03/1073-son ma’lumotnomasi). Natijada, chop etilgan nashrlarning mazmunan boyishiga va malaka oshirish kursi tinglovchilarining dunyoqarashini kengaytirishga, diniy taʼlim muassasalari va

ilmiy-tadqiqot markazlari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

mutasavvifning “Risola dar manoqib va aqoid” asaridagi xon va amaldorlarning davlatni boshqarishda o‘ziga ravo ko‘rganni boshqalarga ravo ko‘rish, ezgulik va olijanoblik, saxiylik, xushmuomalalilik, Haq va xalq rizoligi, odillik va saodat, ma’rifat va ilmparvarlik, rahm-shafqat, farosat va basirat kabi o‘nta shart va xalqning hukmdor oldidagi huquq va majburiyatlariga oid g‘oyalarning “inson – jamiyat – davlat” prinsiplari asosida ijtimoiy davlat barpo etishning xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan maqsadlarini amalga oshirishga oid ilmiy yangiligi, nazariy xulosalari, metodologik hamda amaliy takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-madaniy jamoatchilikni keng xabardor qilish hamda kataloglar, albomlar, ilmiy-amaliy materiallar bazasini takomillashtirishda, jumladan, markaz tomonidan VIII-XVI asrlarda yashagan Sharq allomallari va mutafakkirlari haqidagi tarixiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan “O‘rta asr Sharq allomallari” ensiklopediyasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 26 yanvardagi 02/38-son ma’lumotnomasi). Natijada, Uchinchi Renessans poydevorining ma’naviy asoslarini mustahkamlashda mutasavvifning “Tafsiri Ya’qub Charxiy” risolasi yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi ijobiy ta’sirini rivojlantirish nashr etilgan ensiklopediyaning mavzularini ilmiy manbalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Ya’qub Charxiyning “Tafsiri Ya’qub Charxiy” risolasidagi inson axloqi, fano, qalb pokligiga erishish vositalari, fahsh ishlardan xalos bo‘lish kabi g‘oyalarning “Dil ba Yoru, dast ba kor” shiorining insonni jisman va ma’nan kamol topishida ezgulik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning me’yordagi yo‘li hamda g‘iybat, yolg‘onchilik, baxillik, kibr, zinokorlik kabi illatlarni bartaraf etish va halollik, kamtarlik, poklik kabi fazilatlarni shakllantirish, go‘zal axloq bilan xulqlanish hamda kamolotga erishishga oid ilmiy natijalar hamda amaliy taklif-tavsiyalaridan O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi tarkibidagi kutubxona va arxiv qo‘lyozmalar fondlarini boytishda hamda Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom Buxoro”, “Najot bilimda” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda va bevosita suhbat jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi 2023 yil 14 fevraldagi 08-17/141-son va Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023 yil 1 fevraldagi 01-04-24-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarimizni turli xil tahdid va xavflardan ogoh etish, hushyorlik ruhiyatini shakllantirishda ustozning o‘rni muhim ekanligi, Ya’qub Charxiyning tinchlik, barqarorlik, do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, o‘zaro mehr – oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirishga qaratilgan ushbu ezgu da’vatlari teletomoshabinlarga ushbu masalalar yuzasidan kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatini berib, ko‘rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini ta’minlashga xizmat qilgan;

Ya'qub Charxiyning tasavvuf pirlarining suhbatlari va ustoz-shogirdlik haqidagi "Risolai unsiya" risolasida ilgari surilgan kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashish, nafsni tarbiyalash, ilm-ma'rifatli bo'lish, tahdid va xavflardan ogoh bo'ish, g'aflat uyqusidan bedorlik, hushyorlik ruhiyatini shakllantirish kabi qarashlarining yosh avlodni yuksak fazilatli insonlar qilib tarbiyalashda, "ustoz-shogird" tizimini joriy etishda, ilm olishda munosib, tajribaga ega bo'lgan ustozni tanlash hamda Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda manbaviy asos sifatidagi ahamiyatiga oid ilmiy xulosa va natijalardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazi tomonidan buyurtma asosida tayyorlangan "Buyuk Termiziylar" rukni ostida "So'fi Ollohyor", "Xoja Samandar Termiziy", "Adib Sobir Termiziy" va "Mavlono Ya'qub Charxiy" risolalari mazmuniga singdirilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazining 2023 yil 8 fevraldagi 01-07/27-son ma'lumotnomasi) Natijada, Ya'qub Charxiyning risolalarida ilgari surilgan inson ruhiy jihatdan boqiy yashashi uchun bu dunyo hayotdan foydalanish uslubi, ilmiy yangiligi, nazariy xulosalari, metodologik hamda amaliy takliflaridan Imom Termiziy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazining ilmiy – amaliy materiallar bazasini takomillashtirishda keng xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola (12 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 238 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bahouddin Naqshband ta'limotini rivojlantirgan mutasavvif**" deb nomlangan birinchi bobida Ya'qub Charxiy hayoti va ilmiy merosini o'rgangan xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilarning asarlari nazariy-

metodologik asos sifatida tadqiq etilgan. Mutasavvifning hayot va faoliyati hamda tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni haqida turli davrlarda mutasavvif hamda olimlar tomonidan ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ularni uch qismga bo'lib o'rganilgan:

1. Ya'qub Charxiyning o'zi yozgan risolalar;
2. Ya'qub Charxiyning hayoti va ilmiy merosiga oid yozilgan asarlar;
3. Ya'qub Charxiyning hayoti, ma'naviy merosi hamda manbalarga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar.

Naqshbandiya tariqatining pirlaridan bo'lgan Ya'qub Charxiy orifiy ilm soxibi bo'lganligini nafaqat uning shogirdlari va farzandlari to'plagan manobalar, balki o'zi yozgan ilmning turli sohalari, ayniqsa, naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan risolalari ham tasdiqlab turibdi<sup>8</sup>. Mutasavvif hayoti va ilmiy merosiga oid XIV-XVII asrlarda qator mutafakkirlar, ayniqsa XV asrning mutafakkiri Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul uns", Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat min shamoyimul futuvvat", Fahriddin Ali Safiyning "Rashahot ayn ul - hayot" kabi asarlarida mavzuga oid fikrlar keltirilgan.

Shuningdek, Xoja Ubaydulloh Ahror, Maxdumi A'zam Sayyid Ahmad Kosoniy ad-Dahbidiy, Zahriddin Muhammad Bobir, Abu-l-Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali, Muhammad Rahim, Abu Tohirxo'ja va boshqalarning asarlarida Ya'qub Charxiy haqida turli ma'lumotlar mavjud<sup>9</sup>.

Dissertant xorijiy mamlakatlar Germaniya, Turkiya, Eron, Pokiston, Rossiya, Tojikistonda Ya'qub Charxiy hayoti va ilmiy merosiga oid ayrim tadqiqotlar amalga oshirilganligini qayd etgan. Turkiyalik ilohiyotchi olim Najdat To'sun "Oltin xalqa. Naqshbandiya tariqatining oltin silsilasi"<sup>10</sup> kitobida Ya'qub Charxiy "zanjir az-zaxabning" o'n ettinchi xalqasida ekanligini ta'kidlab, Misr, Hirot va Buxoro madrasalarida ilm olganligi, Hirotida yashagan davrida ijtimoiy muhitning yomonligi hamda Abdulla Ansoriy xonadonida bo'lganligini keltiradi. Jumladan, mutasavvifning Buxoroda ilm olib Bahouddin Naqshband bilan ilk uchrashuvi tugagach, Dashti Kulakka Mavlono Tojiddinning suhbatida qatnashganligi haqida ma'lumotni beradi. Olim fikricha, Ya'qub Charxiyning tushlarida yoki kashfida Buxoro qal'asining yorilganini, qal'a devorlaridagi kovaklardan o'ziga qarab nur taralganini, nurlarning bir uchi uning boshida, qolgani esa uchi arqon kabi uzayib, Ka'baga ulanganini, bu nur iplarining ustida tugun bo'lib, har bir tugunda mevali daraxtlar hosil qilgani, insonlar va maxluqotlar shu mevalardan bahramand bo'lganini ko'radi. Bu tushini ustoz Bahouddin Naqshbandga aytgandan so'ng, piri Ya'qub Charxiyga xalqni irshod qilishga ijozat beradi<sup>11</sup>. Germaniyaning

<sup>8</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI; Silsilai naqshbandiya. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 3410/ III; Risolai qudsiya. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 980/ II; Risoli abdoliyya. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 9351/ III; Risola dar siyrati mustafaviyya va tariqai mustaqima. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 9351/ IV; Risolai dar manoqib va aqoid. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5478/ VI; Sharhi navadu nuh nom. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5478/ V; Tafsihi Ya'qubi Charxiy. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/.

<sup>9</sup> Mazkur tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida batafsil keltirilgan.

<sup>10</sup>Наждат Тўсун. Олтин Силсила. Нақшбандийлик тариқатининг олтин силсиласи. – Т.: Qamar – media, 2022. – Б. 224.

<sup>11</sup>Наждат Тўсун. Олтин Силсила. Нақшбандийлик тариқатининг олтин силсиласи. – Т.: Qamar – media, 2022. – Б. 114-116.

Gamburg universiteti qo'lyozmalarni o'rganish markazi professori Yurgen Paul Ya'qub Charxiyning hayoti, ilmiy merosi hamda Bahouddin Naqshband bilan ustoz-shogirdlik munosobati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z tadqiqotlarida bayon etadi. Jumladan, naqshbandiya tariqati namoyondalari hamda Ya'qub Charxiyning tariqatdagi o'rni va ilmiy merosi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Olim Ya'qub Charxiy zikrni ustoz Bahouddin Naqshbanddan o'rganganligin, muridi Xoja Ahror Valiyga bu masalada e'tiborli bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlagan. Yurgen Paul fikricha, Ya'qub Charxiy ikki yil Alouddin Attorga shogird bo'lib, hozirgi Dushanbe yaqinidagi Halg'atu qishlog'iga dafn etilgan<sup>12</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, so'nggi yillarda O'zbekiston tasavvufshunosligida Ya'qub Charxiyning hayoti, ilmiy merosi va tasavvufiy qarashlarining mohiyati haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Chunonchi, Ya'qub Charxiy haqida jiddiy kuzatishlar olib borgan sharqshunos olim Z. Qutibaev ham tasavvufdagi piri murshidlik masalasini tahlil qilib, naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri Xoja Ahror Valiy Ya'qub Charxiyni o'ziga pir deb tan olinishi haqidagi ko'plab ma'lumotlarni keltirgan. Xoja Ahror Valiydek inson Charxiyni o'ziga pir deb hisoblashi, uning naqadar kuchli orifiy ilm sohibi ekanligidan dalolatdir<sup>13</sup>. R.A.Tillaboev naqshbandiya ta'limotining ko'pgina musulmon hududlariga, shuningdek Hindistongacha tarqalishiga Mavlono Ya'qub Charxiyning alohida o'ringa ega ekanligi haqidagi ma'lumotni keltiradi<sup>14</sup>.

Bahouddin Naqshbandning to'rtta muridi bo'lib, ular Alouddin Attor (vaf.803/1400 y), Muhammad Porso (vaf.1420 y), Alouddin G'ijduvoni (XIV asr), Ya'qub Charxiy (vaf. 1447 y) lardir. Ba'zi olimlar Bahouddin Naqshband hayoti, faoliyati haqida yozganlarida faqat uchta shogirdi haqida eslatib o'tadilar, uchinchi xalifasi Alouddin G'ijduvoni to'g'risida ma'lumot keltirmaydilar. Naqshbandiya ta'limoti Bahouddin Naqshbanddan keyin to'rt shogirdi tomonidan rivojlantirilgan. Ya'qub Charxiydan keyin Naqshbandiya ta'limoti Xoja Ahrori Valiy tomonidan Turkiya va Hindistonda yoyilishi, shu tufayli butun jahonga tarqalishiga sabab bo'lgan. Uning g'oyalarini Muhammad Qozi orqali Maxdumi A'zam rivojlantirgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Ya'qub Charxiy xijriy 768 yil, milodiy 1363 yilda Afg'onistonning Charx degan joyida tug'ilgan. To'liq ismi Mavlono Ya'qub Charxiy ibn Usmon ibn Mahmud ibn Muhammad G'aznaviydir<sup>15</sup>. Ba'zi bir manbalarda, G'azna shahriga qarashli Charx nomli qishloqda tavallud topganligi uchun u o'ziga Charxiy nisbasini tanlagan deyiladi<sup>16</sup>.

---

<sup>12</sup> Paul, Jürgen. *Doctrine and Organization: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin* - Berlin: Das Arabische Buch, 1998. – P. 18.

<sup>13</sup> Qarang: Кутибоев З.А. Хожа Ахрор Валий. – Т.: Фан, 1996, - 157 б.

<sup>14</sup> Qarang: Тиллабоев Р.А. Среднеазиатские агиографические сочинения вв. как исторические источник (жития шейхов накшбандиев). Автореферат док. ист. Наук. – Т., 1994. – 64 с

<sup>15</sup> Хасан Камил Йилмаз. Золотая Силсила. Цеп Преемственности шейхов тариката Накшибандийя-Халидийя. 1-е изд. — М.:«Издательская группа «Сад»», 2009. — С.24.

<sup>16</sup> Фахруддин Али Сафий “Рашахоту айнил-хаёт” // М.Хасаний, Б. Умрзоков. -Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2004. – Б.96.



Yosh Ya'qub Charxiy ilm o'rganishga erta kirishadi. Boshlang'ich ta'limni avval Charxda, so'ng G'aznada olgan. Ilm olishga ishtiyoqi baland bo'lgan Ya'qub Charxiy madrasadagi ta'limni chuqur o'rganadi.

Mutasavvif "Tafsiri Ya'qub Charxiy" asarida hijriy 782 (milodiy 1380) yil Hirotdan Buxoroga kelganligini keltirsa<sup>17</sup>, "Risolai unsiya" asarida esa Buxoroga kelib, Fathobod qishlog'ida Sayfiddin Boxarziy qabri to'g'risidagi hujrada yashaganligi hamda ustoz Bahouddin Naqshband bilan uchrashganligi haqidagi ma'lumotni keltiradi: "Bu faqirning (Buxorodagi) oxirgi kunlari Fathobodda edi. (Bir kuni) Sayfuddin Boxarziy (Unga Allohning rahmati bo'lsin) mozoriga mutavajjih bo'lib o'tirgan edim, nogoh ilohiy qabul paykoni kelib tegdi. Beqaror bo'lib, u hazratning yonlariga bormoqqa qasd qildim. Ko'shki Hinduvon qishlog'iga etganimda, u zotni yo'l boshida menga intizor bo'lib turgan holda topdim. Ochiq yuz bilan ko'rishdilar. Shom namozidan so'ng (men bilan) suhbat qurdilar. Meni u kishining haybatlari bosdi va menda bir so'z deyishga majol yo'q edi"<sup>18</sup>.

"Rashohot"da Ya'qub Charxiy Bahouddin Naqshband vafotidan so'ng, uning muridi va kuyovi Alouddin Attorning muridi bo'lganligi quyidagicha keltiriladi: "Xojai Buzrugning suhbatlariga birinchi kun etganimda, ulardan "meni qabul qiling", deb iltimos qildim. Ular esa dedilar: "Biz o'zimizcha bir ish qilmaymiz, ko'raylik, agar seni qabul qilsalar, biz ham qabul qilamiz", so'ng Jomiy Ya'qub Charxiyning so'zlarini keltirib yozadi: "Bomdodda ularning huzuriga bordim. Ular: "Seni qabul qildilar, ammo sen Xoja Alouddinning suhbatida bo'lasan"<sup>19</sup>, - dedilar. Ya'qub Charxiy Bahouddin Naqshband va Alouddin Attor vositasida naqshbandiya tariqatiga kirgan hamda o'nga yaqin risolalari orqali ushbu ta'limotni rivojlantirgan.

Tadqiqotda Ya'qub Charxiy risolalarida orifiy, tasavvufiy muammolar, shuningdek, falsafa, siyosat, davlatni boshqarish, fiqh, ustoz-shogird, do'stlik, odob-axloq, oila, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari, keksalik, olim va oriflarning ijtimoiy ahvoli kabi mavzular tahlil etilganligi asoslab berilgan. Mutasavvif risolalarida o'ziga xos falsafiy tizim mavjud bo'lib, u ilohiy va dunyoviy hayotni bir-biriga bog'lab tashkil etilgan naqshbandiya tariqatining "Diling Alloh bilan, qo'ling ish bilan band bo'lsin" degan shiorga amal qiladi.

Ya'qub Charxiy nafaqat tasavvuf ilmiga balki dunyoviy ilmlarga ham qiziqqan va munosib hissa qo'shgan. Asuriddin Mufazzal bin Umar al-Abhariy (vaf. 663/1265) ning "Sharhi hidoyat ul-hikma" risolasi falsafa, mantiq, fizika va metafizika sohalariga bag'ishlangan bo'lib, keyinchalik qo'lyozma nusxasida Ya'qub Charxiy tomonidan sharh yozilganligi keltirilgan.<sup>20</sup>

Mutasavvif naqshbandiya tariqatining nazariy - axloqiy masalalari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan bahs yurituvchi o'nga yaqin risolalar yozgan.

<sup>17</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - B. 2 v.

<sup>18</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI; - B. 6.

<sup>19</sup> Фахруддин Али Сафий "Рашахоту айнил-хаёт" // М.Хасаний, Б. Умрзоков. -Тошкент: "Абу Али ибн Сино", 2004. - Б. 98-99.

<sup>20</sup> Раззокова М. Мавлоно Яъкуби Чархий. - Т.: Muharrir, 2013. - Б.28.

Ushbu risolalarning doirasi va qo‘lami keng. Shu bilan birga ularning etakchi va asosiy yo‘nalishi tasavvufning falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari bilan belgilanadi

Ya‘qub Charxiyning bizga qoldirgan boy ilmiy merosi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida quyidagi ashyoviy raqamlar ostida saqlanmoqda: 5825, 3410, 980, 9351, 9351, 5478, 3844, 8745, 7180<sup>21</sup>.

Mutasavvifning boy ma‘naviy merosi va shaxsiy ibрати kelgusi avlodlarni o‘tmish ma‘naviy merosidan bahramand qilishda muhim ahamiyatga egadir. Uning risolalari islom qoidalarini to‘g‘ri anglashda, yurtimizda pok axloqiy qadriyatlarning qaror topishida shubhasiz muhim o‘rin egalaydi. Nashbandiya tariqatini yoyish va rivojlantirishda uning to‘rtta xalifalari – Alouddin Attor, Alouddin G‘ijduvoni, Muhammad Porso, Ya‘qub Charxiylar katta xizmat ko‘rsatdilar. Ular o‘z asarlari orqali Naqshbandiya asoslarini o‘zidan keyingilarga etib borishini ta‘minladilar.

Ya‘qub Charxiyning “Risolai unsiya”<sup>22</sup>, “Tafsiri Ya‘qub Charxiy”<sup>23</sup>, risolalari ba‘zilarigina qisqacha tarjima va manbashunoslik hamda tarixiy nuqtai-nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotimizda ushbu asarlar birinchi marta falsafiy va ijtimoiy – siyosiy tahlil etildi, hamda uning falsafa tarixidagi o‘rnini, inson va uning kamolotiga oid qarashlari tahlil qilindi hamda ularning hozirgi zamondagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, mutasavvifning “Risolai abdoliya”, “Sharhi Asmo ul husna”, “Tafsiri Ya‘qub Charxiy”, “Risolai unsiya”, “Risolai dar manoqib va aqoid” “Huroiyya” risolalari tarjima va falsafiy irfoniy tahlil etildi.

Chop etilgan tadqiqotlarda, naqshbandiya tariqatining piri – murshidi Ya‘qub Charxiy ta‘limoti haqidagi dastlabki ma‘lumotlar bor, lekin bu ta‘limot mohiyati va xususiyati etarli darajada o‘rganilmagan. Mutasavvifning 10 ga yaqin risolasi mavjud bo‘lib, ularni diniy - falsafiy jihatdan o‘rganish zarurligi zamonamiz tadqiqotchilari oldida turgan vazifadir.

Dissertatsiyaning **“Ya‘qub Charxiyning vujud va irfon haqidagi qarashlarining falsafiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Ya‘qub Charxiy borliqqa umumiy ta‘rif berish bilan birga uning ko‘rinishlari bo‘lgan tabiat, inson, jamiyat va ma‘naviy borliqni hamda zikr uslubi, til va qalb ilmlarining falsafiy-irfoniy jihatlari ochib berilgan. Mutasavvif “Risolai qudsiya” asarida Alloh ta‘oloning Yer va Osmondagi mavjudotlarni yaratishdagi ilohiy hikmatlari, ularning tartibi va o‘rinlari haqida ma‘lumot berib, olam, borliq, yo‘qlik kabi falsafiy tushunchalarni tasavvufiy nuqtai nazardan tadqiq etgan.

Ya‘qub Charxiy vahdat ul-vujud ta‘limotini tahlil qilishda Ibn Arabiy qarashlari bilan uyg‘unlik mavjud. Mutasavvif inson avvalo o‘zini bilishi shunda mohiyatni anglashi haqidagi quyidagi fikrni keltiradi:

<sup>21</sup> Бобохонов Ш., Мансур, Абдулазиз. Накшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фихристи. -Т.: Мавороуннахр. 1993. – Б.16-19.

<sup>22</sup> Қаранг: Рахмонов С. Яъқуби Чархий “Рисолаи унсия”. – Самарқанд, 2022. – 78 б. Раззоқова М. Мавлоно Яъқуби Чархий. – Т.: Muharrir, 2013. 112 б.

<sup>23</sup> Қаранг: Раззоқова М. “Тafsири Яъқуби Чархий” асарининг туркий таржимаси // Шарқшunosлик. Т., 2000. - № 10. – Б. 91-97.

من غمض عينه عن الله طرفة عين لا يصل إليه طول عمره<sup>24</sup>

*Mazmuni:* Kimki, ko‘zini Allohdan boshqa tarafga bir lahza bursa, bir umr Unga ko‘zini qaytara olmaydi, ya’ni kim Xudodan bir bor ko‘zini olsa, bir umr o‘z maqsudiga etolmas.

Ibn Arabiy ta’limotida “Javob aytki, “Bu suhbatimiz Allohdan boshqa narsani ko‘rmayotganlar bilandir. Allohdan boshqani ko‘rayotgalarga bizning savolimiz ham javobimiz ham yo‘q. Chunki undaylar ko‘ringannigina ko‘rarlar”<sup>25</sup>, degan xulosani beradi. Demak, ushbu ilm hamma uchun emas, hol ilmiga o‘tganlar, mohiyatni anglaganlar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ya’qub Charxiy risolalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mutasavvif qalb borlig‘i masalasini alohida o‘rgangan. Mutasavvif fikricha, Allohning qarorgohi va yashash joyi qalbdan o‘zga narsa emas. Shuning uchun Uni xufiya zikr qilish kerak. Tangri barcha mavjudot (borliq) ning uyidir, chunki u "vujud"dir va bandaning qalbi ham Haqning uyidir, chunki uni o‘zida quchib oladi, deb Rumiyaning baytini keltiradi:

نعره کم زن ز آن که نزدیک است یار  
که ز نزدیکی گمان آید حلول<sup>26</sup>

*Mazmuni:*

Na’ra urma, ko‘p yaqindir senga yor,  
Ul yaqinlik “hulul” deb bo‘ldi gumon.

Ya’qub Charxiy “Risolai unsiya”da vujud masalasining turli xil jihatlarini tahlil qilgan. Mutasavvif risolada inson vujudini imkoniyatlarini ochish, uni Buyuk olamga aylantirish uchun vujud pok bo‘lishi, asl ilohiylik sifatlarini saqlashi va ilohiy amr asosida butun borliqqa ezgu amallar qilishi lozim, deb ta’kidlaydi.

مردان رهش بهمت و دیده روند  
زان در ره او هیچ اثر پیدا نیست<sup>27</sup>

*Mazmuni:*

Kim eran – o‘z himmati birlan xaloyiq nazdida  
Go‘yoki ishqdan asar ham topmagandek ko‘rinur.

Naqshbandiyaning ta’limotining asl mohiyati inson vujudining imkoniyatlarini ochish, unga eng yaqin, eng beozor yo‘l bilan, qisqa muddatda aslini tanib, o‘zligini anglab, ilohiylik sifatlarini egallab kamolotga etishiga va uni abadiy boqiy hayotga erishish siru asrorlaridan voqif etish orqali jamiyatda tinchlikni barqaror etish va xalqning farovon yashashini ta’minlashga erishishdir.

Tadqiqotchi Ya’qub Charxiyning “Sharhi Asmo ul-husna” asaridagi baqo va fano tushunchalarning tasavvufiy mohiyatini ochib bergan. Solik “Al-Boqiy”

<sup>24</sup> Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O‘zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 17 varaq.

<sup>25</sup> ابن عربي. الر سالة الوجودية / Ибн Арабий. Ар-Рисолат ул вужудийя. // тарж. Болтаев А. – Б. 44.

<sup>26</sup> Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O‘zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 16 varaq.

<sup>27</sup> Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O‘zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 22 varaq.

(Uning borligiga fano bo‘lish yo‘q) da, Uni do‘st tutsin va Undan o‘zgdan qalbini uzsin. Uni boqiy qolganlarni foniy deb bilsin”<sup>28</sup>.

چون روح در نظاره فنا گشت این بگفت  
نظاره جمال خدا جز خدا نکرد  
نامی ست ز من بر من و باقی همه اوست<sup>29</sup>

*Mazmuni:*

Ruh fano maqomiga chiqib, tamosho qilgan paytda shunday dedi:  
“Xudoning jamolini Xudo tamosho qilyapti”.

Mening faqat nomim qolgan, boshqa narsam hammasi Unda boqiydir.

Demak, inson asl boqiy dunyo umidida yashamog‘i, bu foniy dunyo ikir – chikirlari bilan o‘ralashib qolmasligi, g‘aflat va g‘ofillikni tark etishi, vaqtincha huzur – halovatlar, hoyu havaslar ilinjida, yomonlikdan zavqlantiradigan nafs – nafsi ammora tuzog‘iga tushib qolmasdan, Alloh amriga bo‘ysunishi lozim bo‘ladi.

Ya‘qub Charxiy risolada azaliy va o‘tkinchi olamni tahlil qilar ekan, shaklga, o‘tkinchi olamga berilmaslik va aldanmaslikka, boqiy olam haqida ko‘proq o‘ylashga chaqirib, Mavlono Jaloliddin Rumiyning quyidagi baytini keltiradi:

Ey baso, kasro ki surat roh zad,  
Qasdi surat kardu barrulloh zad  
Toki nafribad shumoro shakli o‘,  
Naqli o‘ shoyad ba pesh az naqli o‘.<sup>30</sup>

*Mazmuni:* kimki suratga aldansa, yo‘ldan adashadi, suratni maqsad qilsa, Allohdan chetlanadi. Ularning bechora ko‘rinishi va shakl-u shamoyili sizlarni aldab qo‘ymasin, Ularni uchratishdan oldin ular to‘g‘risida naql qilingan gaplarni bilgin. Ya‘qub Charxiy fikricha, “vahdat ul-vujud” deganda moddiylikdan, shaklu shamoyildan xoli, munazzah, ammo ana shu O‘zi xalq etgan olamlar bilan doimiy birga bo‘lgan, bu olamlar mohiyatini qamrab olgan, ularga muhit bo‘lgan Zoti pokning yagona vujudi anglashiladi.

Ya‘qub Charxiyning ilmiy-irfoniy asarlari ichida “Risolai unsiya” alohida ajralib turadi. Mutasavvif risolada Naqshbandiya ta‘limotida zikr masalasi, uning tutgan o‘rnini irfoniy tahlil etgan. Risolada ta‘kidlanishicha, Naqshbandiya ta‘limotining o‘ziga xos tomoni xufiya zikrdir, ya‘ni bu tariqat ahlida samo‘ (eshitish, tinglash), jahriya zikr yo‘q. Ya‘qub Charxiy “Risolai unsiya” asarida xufiya zikrning ahamiyatiga maxsus bob ajratgan. Zikr qalb amaliyoti bo‘lgani uchun risolada Bahouddin Naqshbandning qalb pokligi masalasiga e‘tibor berib, toza qalb bo‘lmaguncha o‘tkinchi dunyo va boqiy dunyo balolaridan qutilib bo‘lmasligi haqidagi quyidagi ibratli o‘gitini keltirgan:

Zi g‘ayrat xonai dilro zi g‘ayrat kardaam xoli,  
Ki g‘ayratro nameshoyad, dar in xilvat saro budan<sup>31</sup>.

<sup>28</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Sharhi navadu nuh nom. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ V – 77 varaq.

<sup>29</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai huroiyya. / O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 3410 / VI. – 183 varaq.

<sup>30</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxi. Risoli abdoliyya. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 9351/ III. – 20 varaq.

<sup>31</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5825/ VI. – 13 varaq.

### Tarjimasi:

G'ayratla qildim bu dilni o'zingdan o'zgadin xoli,  
O'zingdan o'zga birla xoli qolmoqlik sazovormas.

Ya'qub Charxiy Bahouddin Naqshbandning hadisda keltirilgan ilm va uning turlari haqidagi quyidagi so'zlarini ta'kidlaydi: "Aytidilar: "Hadisda "Ilm ikki xildir. Birinchisi "qalb ilmi" bo'lib, u avliyo va anbiyolarning foydali ilmidir." Bunday ilm inson qalbida yashiringan ilohiy ilm bo'lib, bu ilmga doimiy zikr holatida ilohiy eshitish va ilohiy ko'rish orqali erishiladi. Qalb ilmi inson ruhining intilishi, hayotiy jo'shqinligi natijasida yuzaga chiqadi va inson aqlining rivoji, asrlar davomida yuzaga kelgan ilmiy bilimdan tubdan farq qilsa ham, uni inkor etmaydi<sup>32</sup>.

Mutasavvif til ilmi turiga namozni misol keltirib, risolada uni o'qish tartibini beradi: "Bu namozni nafyi xavotir bilan, ya'ni fikrini tozalab, zohiru botini bilan tavajjuh qilgan holda o'qisin. Payg'ambarimiz aytganlar: ما من مسلم يتوضأ فيحسن وضوئه ثم يقوم فيصلى ركعتين مقبلا عليها بوجهه و قلبه إلا وجبت له الجنة "Musulmon kishi yaxshilab tahorat qilsa, so'ng o'rnidan turib, istab, ikki rak'at namoz o'qisa, unga jannat vojib bo'ladi"<sup>33</sup>, ya'ni musulmon kishi tahorat olganda tahoratning barcha farzlarini, sunnatlarini va odoblarini bajo keltirsa, so'ng turib ikki rak'at namozni to'la huzur bilan o'qisa, u jannatga munosibdir.

Mutasavvif ilmni amal bilan birga ko'radi. Ilmni egallashdagi niyat shu paytda natija beradiki, unga amal qilinsa. Ilmu amal birga bo'lganda natija hosil bo'ladi. Ilmni egallab, oraziy, majoziy, foniy vujudni tark etib, Haqiqiy vujud bilan bog'langandan keyin yuz minglab natijalar beradi. Lekin bir shaxs dunyo va oxirat ilmlarini egallagan bo'lsayu, ularga amal qilmasa, undan hech qanday natija hosil bo'lmaydi.

Ya'qub Charxiy sufiylarning quyidagi fikrini keltiradi: ذكر اللسان هذيان و ذكر القلب وسوسة<sup>34</sup> "Tilning zikr qilgani - hech narsa, qalbning zikr qilgani - vasvasa". Bunday maqom yo'lning nihoyasiga chiqqanlar uchundir.

Bayt:

دل را گفتم بیاد او شاد کنم  
چون من همه او شدم کرا یاد کنم<sup>35</sup>

Mazmuni:

Dilga aytdim: "Kelsin U, bir shod qilay",

Dil dedi: "U – menku. Kimni yod qilay".

Haqiqat inson qalbidagi ilohiy nurdadir. Nur esa insonning fikri, so'zi, xayollari orqali emas, balki ruhiy quvvati asosida qilayotgan xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Qalabda Alloh tomonidan joylashtirilgan ilmni dars olish bilan

<sup>32</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 13 varaq.

<sup>33</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 9 varaq.

<sup>34</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 22 varaq.

<sup>35</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - 23 varaq.

o'rganib bo'lmaydi. Yuzta uyda joylashgan kitoblarni o'qisang ham, olgan bilimlaring qalbdan kutubxonasi bo'lgan bilimlar bilan tenglasha olmaydi.

Ya'qub Charxiy ustoz Bahouddin Naqshbanddan eshitgan quyidagi fikrini keltiradi: الذكر ارتفاع الغفلة فإذا ارتفع الغفلة فأنت ذاكر و إن سكت “Zikr bu g'aflatning ketishidir. Agar g'aflat ketsa, sen sukut qiluvchi zokirga aylanasan”, ya'ni zikr g'aflatning uzoqlashuvi bo'lib, bunda kishi sukut holida zikr qiluvchi bo'ladi. Va yana aytar edilar: “Vuqufi qalbiy shu qadar muhimki, kishi eb-ichganda ham, yurganda ham, tahorat olganda va namozu Qur'on o'qiganda ham, yozib-chizganda va dars qilganda ham, va'zu nasihat paytida ham, har qanday holatda, tokim, maqsud hosil bo'lmaguncha bir lahza ham g'ofil bo'lmasin”<sup>36</sup>. Demak, zikr bu g'aflatga ogohlik bo'lib, mushohadani keltirib chiqaradi.

Naqshbandiya ta'limoti hushyorlik yo'li bo'lganligi uchun Ya'qub Charxiy zikrni g'aflatdan uyg'otish usuli, deb hisoblab, ilk amal qilish bo'lgan tamoyil sifatida “Hush dar dam” keltirgan. Chunki, g'aflat holati ma'rifatli bo'lishga to'siqdir. Mutasavvif “Sharhi Asmul husna” asarida go'zal ismlarning irfoniy ma'nosini ochib bergan. Bu tushunchalar hozirgi Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda inson qalbini poklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning “**Ya'qub Charxiyning ijtimoiy-axloqiy g'oyalari**” deb nomli uchinchi bobida mutasavvif tafsiridagi ijtimoiy-axloqiy g'oyalarning falsafiy tahlili o'z aksini topgan.

Ya'qub Charxiy Fotiha surasini tafsirida “Rasul alayhissalom: “Darhaqiqat, Fotiha surasida etmishta shifo bor”, yana bir rivoyatda “Fotiha surasi o'limdan boshqa barcha dardlarga davodir”<sup>37</sup>, - deganlar. Mutasavvif “Taborak” surasidagi Allohning al-G'afur ismini tafsirlab, Alloh badkirdor mo'minlarning qay birini xohlasa, uning gunohlarini kechirishini ta'kidlaydi. “Sening nasibang shuki, har qanday gunohing bo'lsa ham Allohning bepoyon rahmatidan noumid bo'lmasin”<sup>38</sup>. Demak, Ya'qub Charxiy insonlarga Allohning mehribonligi, rahimliliga e'tibor berishlikni, hayotga umidvor qarashga va mehnat qilishga, ya'ni “Dil ba Yoru, dast ba kor” shioriga amal qilishga chaqiradi. Mutasavvif “Allohim, mehribonliging barchaga umumiy bo'lgan daryodir, undan bir qatrasini biz uchun etarli va kifoya. Agar xalq gunoh bilan bulg'angan bo'lsa, (*Xohlasang*) bu daryo bilan ularni birdaniga yuvib tashlaysan (ya'ni, istasang ularni gunohdan poklaysan)” - deb fikrini quyidagi bayt orqali rivojlantiradi:

Nagardad tiyra on daryo zamone,  
Vale ravshan shavad qori jahoni.<sup>39</sup>

*Tarjimasi:*

Bu daryo bir lahza ham iflos bo'lmaydi,

<sup>36</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5825/ VI. – 17 varaq.

<sup>37</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - 5 varaq

<sup>38</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. -11 varaq

<sup>39</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - 10 varaq.

Biroq dunyo ishlari yanada yorug' bo'ladi.

Tadqiqotchi fikricha, Ya'qub Charxiy suradagi "(Ey insonlar, U) sizlarning qaysilaringiz chiroyliroq, yaxshiroq amal qilguvchi ekanligingizni imtihon qilish uchun o'lim va hayotni yaratgan zotdir" oyatining tafsirida o'lim va hayotning mohiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Ya'qub Charxiy o'limni eslab turish va dunyo hayotiga mag'rur bo'lmaslik darvishlarning asosiy vazifalaridan biri ekanligini aytib, hayotidan misol keltiradi: "Mo'minning bu ma'nodan nasibasi shuki, u o'limni doim yodida tutsin, unga tayyorgarlik ko'rsin, bu g'urur saroyidan nafratlansin. Bu faqirning piri hazrat shayx (*Bahouddin Naqshband - Z.E.*) menga bir kunda qirq martagacha go'ristonga borishimni va o'zim bilan o'zim hisob-kitob qilishimni buyurar edilar"<sup>40</sup>.

Disertant xulosalariga ko'ra, mutasavvif hayot va o'lim masalasini tasavvufiy tahlil qilishi falsafada inson muammosini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson deb nomlanuvchi biososial uyushma tirik mavjudot sifatida o'z hayoti cheklanganligini tushunib olishi bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, olamdagi tirik mavjudotlar ichida inson o'z umrining chegarasi, muddati borligini tushunib etadi.

Ya'qub Charxiy tafsirda tariqat va shariat hukmlari o'rtasidagi farqlarni ham tahlil etgan. Mutasavvif "nasibi darvish in ast", ya'ni orifning nasibasi deb, jamiyatdagi voqea va hodisalarga tasavvuf nuqtai-nazaridan munosabatda bo'lishni aytsa, "nasibi mutasharri' in ast" – deb, shariat ahlining jamiyatdagi voqea va hodisalarga shariat nuqtai-nazaridan munosabatda bo'lishini ta'kidlaydi. Tasavvufda yomon odamlarga nisbatan sabrli bo'lish lozimligini ko'rsatadi. Mutasavvif fikricha, "shariat ahli fisqu fujur ahli, bid'at va zalolatga bo'lganlarga shirin so'z bilan muomala qilmaydi"<sup>41</sup>. Ya'qub Charxiy Payg'ambar (s.a.v.)ning quyidagi sunnatlarini keltiradi: "Fosiqlarga kulib qaramang"<sup>42</sup>. Demak, so'fiylik ta'limoti munosabatlarda ko'rinsa, shariat qonunlar asosida quriladi.

Ya'qub Charxiy "Sharhi Asmoul husna" asarida "al-Latif" ismning suluk ahli uchun xususiyatini quyidagicha tahlil etadi: "al-Latif" ismidan orifning nasibasi shundayki, u botinni, shuningdek, zohirni ham yomon illatlardan tozalaydi va kattalarga ham, kichiklarga ham yaxshilik etkazuvchi bo'ladi"<sup>43</sup>. Ya'qub Charxiyning fikricha, odam avlodlarining barchasi aslida har qanday bulg'anishliklardan pokiza bo'lgan. Bu dunyodagi nopokliklarga yovuz niyatli safdoshlarining suhbatlari, xulq-atvori orqali yo'liqqan ekanlar, suhbatdoshlarning eng yomoni, yomon insonlardur.

Ya'qub Charxiy "Al-Jin" surasi tafsirida folbinlar hamda ularga ergashadigan insonlar masalasiga ham to'xtalib: "Parixonlik bilan shug'ullanuvchi kishi o'zi kofir bo'lib, xotini taloq bo'ladi. Bashoratchilarning hamda ilmsiz insonlarning

<sup>40</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - 11 varaq.

<sup>41</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - 23 varaq.

<sup>42</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 8745/. - 24 varaq.

<sup>43</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Sharhi navadu nuh nom. O'zRFA ShI xazinasini, inn. № 5478/ V. – 159 varaq

be'mani kitoblariga e'tiqod qilma". Mutasavvif fikricha, folbinlar insonni to'g'ri hayotidan adashtiradi. Natijada jamiyatga katta zarar keltiradilar. Ya'qub Charxiy: "Sen jinlarning zararini daf qilish maqsadida olov tutatib, chirog' hamda shamlar yoqma"? - deb ibtidoiy dinlardan qolgan odatlardan saqlanishga, yagona Allohga e'tiqodda bo'lishga chaqiradi. Ya'qub Charxiy "Qadr" surasini tafsirlashda Alloh taolo quyidagi to'rt toifa insonlarni kechirmasligini keltiradi: Farishtalar Jabroildan so'raydilar: "Alloh ta'olo Muhammad ummatlari sha'nida nima qildi?"<sup>44</sup>.

Jabroil aytadi: "To'rt toifadan boshqa barchalarini afv qilib, gunohlarini kechirdi. Bu to'rt toifa birinchisi, mudmini xamr, ya'ni sharob ichuvchi va sotuvchilar, ikkinchisi oq bo'lganlar, ya'ni ota va onasina ozor beruvchilar, uchinchisi, qoti'i rahm, ya'ni tug'ishganlari bilan aloqani uzib, tug'ishganlik haqqini ado qilmaganlar, to'rtinchisi, mashohin, ya'ni musulmon birodariga achchiq qilib, u bilan so'zlashmay yuradiganlar. Shu to'rt toifani kechirmadi"<sup>45</sup>. Mutasavvifning bu g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarb muammolar hisoblanadi. Ya'qub Charxiy "at-Toriq" surasida insonning ona qornida paydo bo'lishi haqidagi oyatni tafsirlab, tasavvufiy falsafiy tahlil qilgan. "Sening nasibang shuki, avval o'zingni angla nima eding va nimadan bo'lding, avvaling sassiq suv edi va oxiring to'zigan tuproq"<sup>46</sup>. Mutasavvifning fikrlari, odamni chuqur o'ylashga, fikrlashga, nimadan paydo bo'lib, yana nimaga aylanishiga doir mulohazalar yuritishga olib keladi. Bunday chuqur ahloqiy jumlar odamni kamtarlikka chorlaydi. Umr tez kunda poyoniga etishini, shuning uchun dunyoda yaxshi ishlar qilib qolishni ta'kidlagan.

Mutasavvif "Nuh" surasi tafsirida orif kishi faqr bo'lishi uchun sabrli bo'lishi, "Jin" surasi tafsirida esa, "kishining ne'mati ko'p bo'lsa, shukri ham ko'p bo'lmog'i kerakki, shunda ne'mat ustiga ne'mat keladi va bu ne'mat yanada ziyoda bo'ladi"<sup>47</sup> - deb ta'kidlaydi. Demak, inson har qanday vaziyatda ham shukr, sabr qilsa ne'mati, rizqi ko'payadi.

Ya'qub Charxiy "Qalam" surasini tafsirlashda ta'ma masalasiga ham alohida to'xtalib tasavvufiy tahlil qiladi. Mutasavvif fikricha, "orif kishi o'zining do'stlaridan dunyoviy narsalarni tama' qilmaydi. Chunki, insoniylik uning tabiatidagi eng ulug' vazifasi hisoblanadi"<sup>48</sup>. Demak, inson yaxshilikni chin dildan qilishi, evaziga biror narsa tama' qilmasligi kerak. Inson halol mehnat qilib, tama' qilmasa, uning oxirati obod bo'lib, Allohni vasliga etadi. Ya'qub Charxiy halol mehnat qilish, boshqalarning boyligiga tilanchi ko'zi bilan boqmasligini ta'kidlab quyidagi baytni keltiradi:

Bori xud bar kas maneh bar xeysh nih,

---

<sup>44</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 84 varaq.

<sup>45</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 98 varaq.

<sup>46</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 184 varaq.

<sup>47</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 84 varaq.

<sup>48</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Tafsiri Ya'qubi Charxiy. / O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 30 varaq.



Sarvariro kam talab, darvesh bih.<sup>49</sup>

*Mazmuni:*

Yukingni birovning elkasiga qo‘yma, uni o‘zing ko‘tar,  
Ulug‘likka intilmagin, darvishlik yaxshidir.

Demak, inson o‘zi halol mehnat qilishi, birovlariga og‘irligi tushmasdan, hayotda boylikka ruju qo‘ymasligi, kibrga berilmasdan faqir hamda kamtarona yashashi lozim.

Диссертантнинг фикрича, Ya‘qub Charxiyning “Tafsir”i germeneytik uslub asosida yozilgan asardir. Mutasavvif “Tafsir” ni irfoniy tahlil qilib, insonlarga Allohning mehribonligi, rahmliliga e‘tibor berishlikni, hayotga umidvor qarashga va mehnat qilishga, ya‘ni “Dil ba Yoru, dast ba kor” shioriga amal qilishga chaqiradi. Ya‘qub Charxiy tafsirda insonning hayot va o‘lim masalasini tasavvufiy tahlil qilishi falsafada inson muammosini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutasavvif insondagi yomon amallar (g‘iybat, yolg‘onchilik, baxillik, kibr, zinokorlik) ni qoralab, yaxshi amallar (halollik, kamtarlik, poklik)ning mohiyatini ochib bergan. Ya‘qub Charxiy inson zarra miqdorda yomonlik qilsa yoki yaxshilik qilsa, uning jazosi yoki mukofotiga sazovor bo‘lishini ta‘kidlab, doimo yaxshilik qilish, yomon ishni qilib qo‘ysa, tovba qilib, qayta bunday ishni takrorlamaslik kabi axloqiy masalalarni tasavvufiy ochib beradi. Mutasavvif inson axloqining namunasi sifatida Muhammad (s.a.v.) ni keltirib, so‘fiylar insonlar orasidagi Payg‘ambar (s.a.v.) ga chin iqtido qilgan holda eng ko‘p ergashadigan toifa ekanligi, uning sunnatini tiriltirishga, go‘zal axloqi bilan xulqlanishga hamda kamolotga erishishda vositachi sifatida irfoniy tadqiq etadi.

Dissertatsiyaning **“Ya‘qub Charxiy ta‘limotida ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarning falsafiy tahlil”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida mutasavvifning naqshbandiya faoliyatining ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag‘ishlangan “Risola dar manoqib va aqoid” (Manoqib va aqoid haqida risolasi) asarida podshohlarning fazilatleri, davlatni boshqarishda shartlar hamda xalqning podshohlarga nisbatan huquqlariga amal qilish zarurligi, Ya‘qub Charxiyga ustozlik qilgan Bahouddin Naqshband, Alouddin Attorning o‘g‘itlari va ularning hozirgi kundagi ahamiyatiga oid fikrlar o‘z aksini topgan.

Tadqiqotchi Ya‘qub Charxiyning “Risola dar manoqib va aqoid” asarini ilmiy tadqiq etish asosida podshohlarning fazilatleri, davlatni boshqarishga oid shartlarni quyidagi tartibda keltiradi: *Birinchi shart*, biron voqea yuz bersa, podshoh va hokim bu voqea o‘zlarini raiyat deb tasavvur qilishlari, raiyatni esa podshoh va hokim deb o‘ylashlari kerak. Demak, mutasavvif fikricha, podshoh va hokimlar o‘zini ishida fuqarolarni teng ko‘rish, o‘zi yoqtirmagan narsalarni birovlariga ham ravo ko‘rmasligi kerak. Fuqarolarni kuch bilan bo‘ysunishga majbur etish mumkin. Ammo qalblarni bo‘ysundirib bo‘lmaydi. Odamlar davlat kuch jihatidan ustun bo‘lganligi bois bo‘ysunishdan o‘zga iloj topolmaydilar. Ezgulik va olijanoblik vositasida fuqarolarni bo‘ysundirish esa qalblarda quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi va odamlar haqiqiy itoatgo‘ylikni namoyish etadilar. *Ikkinchi shart*, musulmonlar

<sup>49</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Tafsihi Ya‘qubi Charxiy. / O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/. - 30 varaq.

hojatini ravo qilishni ibodatlarining eng afzali deb hisoblasin. Demak, davlat boshlig‘i muhtoj, nochor insonlarning ahvolidan xabardor bo‘lishi hamda ularga doim yordam qo‘lini cho‘zishi lozim. Bu masala hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bilan hamohang hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonidagi “taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasiga muvofiq keladi. Farmonga ko‘ra, 2026 yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olinib, kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish hamda “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha alohida ma‘lumotlar bazasini yaratish, jumladan “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” ni “Ijtimoiy himoya yagona reestri” bilan integratsiya qilishni nazarda tutadi. *Uchinchi shart*, eb-ichishda xulafoi roshidinning siyratiga ergashsin. Yaxshi ovqatlarni eyishga, qimmatbaho kiyimlarni kiyishga odat qilmasin. *To‘rtinchi shart*, hukm paytida muloyimso‘z bo‘lsin. Keraksiz o‘rinda achchiq so‘zlamasin. Hujjatga ega bo‘lganidan keyin ko‘p kuttirmasin. Zaiflar va miskinlar bilan gaplashishdan o‘zini olib qochmasin. Demak, podshoh va hokimlarga xalqni dardini to‘g‘ri eshitishi, har bir ishni amalga oshirishda avval tekshirib, so‘ng amalga oshirishi, g‘azablanmasligi, hujjatlarni ko‘rayotganda charchamasdan, oddiy insonlarni mensimaslik qilmaslikka chaqiradi. *Beshinchi shart*, xalqni rizosi uchun biron hukm qilmasin, kimnidir xushnud qilish uchun haqiqat va shariatdan foydalanmasin. Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Davlat tashkilotlari faoliyatida “mahallalar kesimida ishlash”, “xalq ichiga kirish”, uning “dardiga quloq solish”, “tashvishi sherik bo‘lish” va “muammolarni joyida hal etish” tamoyillari o‘rnatildi. *Oltinchi shart*, hukumat va boshqaruvga bog‘lanib qolmasin. Aniq bilsinki, amirlik va hukumat mansabi ilohiydir. Xalqimizda hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolatni hayotimizda tom ma‘noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylanmoqda. Qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash – Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir. Xalqimizning bu boradagi taraqqiyot strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning insonga, xalqqa, xalqning davlatga bo‘lgan munosobati o‘zgarayotganida ham namoyon bo‘lmoqda. *Yettinchi shart*, olimlar va solih kishilar suhbatiga rag‘bat ko‘rsatsin. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoevning “Yana bir bor ta‘kidlayman: men Yangi O‘zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renesansni barpo etishda pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o‘z

burchim, deb hisoblayman.”<sup>50</sup> Jumladan, “2017-2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda biz, avvalambor, fuqarolarimiz bilan muloqot qildik, bamaslahat ish tutdik, xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayandik”<sup>51</sup> – degan fikrlari hamda olib borilayotgan islohotlarini, aynan Ya‘qub Charxiy g‘oyalarining amaliy natijasi sifatida ko‘rishimiz mumkin. *Sakkizinchi shart*, jabru zulm va takabburlik qilib xalqni o‘zidan uzoqlashtirmasin, balki adolat va insof bilan hamda zaiflarga va tangdastlarga shafqat ko‘rsatish orqali o‘zini raiyatga sevimli qilsin. Demak, Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda: “odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning mavhum kelajakda emas, balki bugun farovon yashashini ta‘minlash, ularning hayotiy muammolarini hal etish va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish Yangi O‘zbekiston strategiyasining oliy maqsadi hisoblanadi”<sup>52</sup>. *To‘qqizinchi shart*, podshoh qo‘l ostidagi xiyonatkor noiblar va xizmatkorlarning qilayotgan ishlaridan g‘aflatda qolmasin. Ya‘qub Charxiy fikricha, podshohlar qo‘l ostida ishlaydigan zulmkor noib va johil amaldorlarning xiyonatiga befarq bo‘lmasdan, siyosatni mensimaganligi sabab boshqalarga ibrat bo‘lishi uchun jazo berish kerak bo‘ladi. Chunki, podshoh amaldorlarni siyosat va nasihat bilan adab berish lozim<sup>53</sup>. Bugungi kunda yurtboshimizning hokimlarga olib borayotgan siyosati shundan dalolat beradi. Xodimlarni boshqarish tizimi tashkilot uchun kerakli kadrlarni tanlash va saqlash, ularni kasbiy o‘qitish, har bir xodimning faoliyatini, hatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash va samaradorligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ayniqsa, respublikada raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsiyalarni rivojlantirish natijasida yuqori malakali kadrlardan iborat zamonaviy tashkilotlarni shakllantirish hozirgi davr talabi bo‘lib qolmoqda. *O‘ninchi shart* farosatdirki, uning podshoh va hukmdorlarda bo‘lishi vojibdir<sup>54</sup>. Demak, rahbar inson qiyinchilik bilan erishgan obru-e‘tiborini arzimasi noto‘g‘ri xatti-harakati bilan yo‘qotib qo‘yishi ham mumkin. Umuman, rahbar o‘z obro‘sin saqlash uchun juda ko‘p axloqiy, ma‘naviy ma‘rifiy talablarga rioya qilishi zarur. Ayniqsa, rahbarning nutq madaniyati, muomalasi, kiyinishi, ko‘rinishi, o‘zini jamoa oldida tuta bilishi muhim ahamiyatga ega.

Ya‘qub Charxiy podshoh va hokimlarning o‘nta shartini tahlil qilib berib, raiyat (xalq) ning oldidagi huquqlarini ham keltiradi. *Birinchi haq* shuki, barcha musulmonlar bilan kamtarin muomalada bo‘lsinlar. *Ikkinchi haq* shuki, avomning bir-birlari to‘g‘risida chaqimchilik qilib aytgan gaplarini eshitmasinlar. *Uchinchi haq* shuki, musulmonlarga ularni haqir sanab yoki biror qusuri uchun g‘azab qilmasinlar. *To‘rtinchi haq* shuki, aql va ehsonning fayzini barcha musulmonga bir xil qilsin. *Beshinchi haq* shuki, podshoh xalqning hovli-joy va haramlariga jabr

<sup>50</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 236.

<sup>51</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>

<sup>52</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai dar manaqib va aqid. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ VI. - 8 varaq.

<sup>53</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai dar manaqib va aqid. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ VI. - 9 varaq

<sup>54</sup> Ya‘qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai dar manaqib va aqid. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ VI. - 10 varaq.

qilmasin. *Oltinchi haq* shuki, xalq bilan gaplashilganda, ularning martabasiga va har kimning darajasiga qarab baqadri hol muomala qilsin. *Yettinchi haq* shuki, majlislar va yig'inlarda keksa yoshli kishilarning hurmatini joyiga qo'ysin, xossatan, dindor keksalarga va bolalarga shafqat nazari bilan boqsin. *Sakkizinchi haq* shuki, biror narsani va'da qilgan bo'lsa, shaksiz unga vafo qilsin, unga xilof qilmasin. *To'qqizinchi haq* shuki, hukm qilganda fisq so'zlarni ishlatmasin. Kamtarlik, shirinso'zlik va ochiqyuzlik bilan gapirsin. *O'ninchi haq* shuki, o'ziga xalqdan insof so'rasin va o'z nafsidan xalqqa insof so'rasin. *O'n birinchi haq* shuki, xalqning o'zaro janjallarini islohga keltirishni o'ziga vojib deb bilsin. *O'n ikkinchi haq* shuki, musulmonlarning gunohlari uchun ayblashga harakat qilmasin. *O'n uchinchi haq* shuki, shoh har turli shahvatlarga berilib, xalqni ma'siyat ishlarni qilishiga rag'batlantirmasin kulfatni ketkazish uchun tuhmat qilishdan saqlansin. *O'n to'rtinchi haq* shuki, agar bir musulmonning hojatini ravo qilish hukmdorga bog'liq bo'lib qolgan bo'lsa, u muhim ishga kifoya qilsin va muammosini hal qilib bersin. *O'n beshinchi haq* shuki, mol-dunyo ahlidan bo'lgan boylar va kuchlilar tomonida emas, balki zaiflar va miskinlar tomonida tursin. *O'n oltinchi haq* shuki, hech vaqosi yo'q, aftodahol kishilarning holidan g'ofil qolmasin. *O'n ettinchi haq* shuki, siyosat zarbi bilan musulmonlarni yo'lto'sar va qaroqchilarning xavfidan forig' qilsin. *O'n sakkizinchi haq* shuki, viloyatning qaysi joyiga rabot yoki ko'priikka ehtiyoj bo'lsa, baqadri hol ularni barpo etishga harakat qilsin, kechiktirmasin. *O'n to'qqizinchi haq* shuki, xalq gavjum bo'lgan har bir joyda ular uchun masjidlar bino qilsin. *Yigirmanchi haq* shuki, amri ma'ruf va nahyi munkarni tark qilmasin<sup>55</sup>.

Dissertant fikricha, mutasavvifning ijtimoiy-siyosiy ta'limoti xalqning ahvolini yaxshilash, ularning manfaatini himoyalash uchun turli vositalardan, inchunun siyosiy institutlarning imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish zarurligiga tayanadi. Maqsad yurt tinchligi, el farovonligi bo'lishi lozim. Bu ta'limot Yangi O'zbekistonni barpo etish hamda taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning diniy-falsafiy ildizlaridan biridir.

Bahouddin Naqshband Ya'qub Charxiyga zikr ilmini o'rgatishga ustozlik qilgan bo'lsa, tariqatda kamolotga etishiga Alouddin Attorning o'rni beqiyos hisoblangan. Ya'qub Charxiy bilan bu ikki ulug' inson orasida ustoz shogirdlik munosabati kuchli muhabbat va sadoqatga asoslangan. Ustozlarining bu o'gitiga amal qilgan mutasavvif kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashib, nafslarini tarbiyalab, kamtarin ulug' inson bo'lib kamol topgan. Ya'qub Charxiy "Sharhi Asmoul husna" risolasida ustozlarning shogirdlari oldidagi asosiy vazifalari haqida to'xtalib o'tadi. "Hazrat maxdum pirimiz Bahouddin Naqshband shunday der edilar: "Har bir pir o'z muridini shu ikki sifat bilan tarbiya qilsin, tokim jamolida jalolni, jalolida jamolni ko'ra olsin". Xoja Alouddin Attorning shunday deganlarini eshitgandim: "Agar Uning jamoli bo'lmaganda jaloli butun

---

<sup>55</sup> Ya'qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy al-Charxiy. Risolai dar manoqib va aqoid. O'zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ VI. - 11 varaq.

dunyoni kuydirib yuborgan bo‘lar edi va agar jaloli bo‘lmasda bu dunyoni yoqib yuborgan bo‘lar edi”<sup>56</sup>.

Ya‘qub Charxiy fikricha, “pirning vujudida Payg‘ambar (s.a.v.) norizo bo‘ladigan sabab yo‘q bo‘lgan zotdir... U pokiza axloq uchun oina bo‘lgan kishidir”<sup>57</sup>. Demak, pir payg‘ambar sifatleri bilan mukammal sifatlangan va Allohning tasarruf nurlari ostiga to‘liq ko‘milgan zot bo‘lishi kerak. Pir ilohiy tasarruflar bilan toliblarning qalblaridan boxabar bo‘lishi, o‘zidan esa foniy bo‘lishi va Allohning rizoligini ko‘zlab ish tutishi lozim. Ya‘qub Charxiy tariqat muridlarini tahlil qilib, bu yo‘lning asosini suhbat tashkil qilishini ta‘kidlaydi. Bahouddin Naqshband bu borada shunday deganlar: “Tolib amal qilishi zarur bo‘lgan shartlardan biri shuki, u Haq taolo do‘stlaridan bo‘lgan bir do‘st bilan suhbatda bo‘lib, o‘z holidan voqif bo‘lishi zarur”<sup>58</sup>.

Tadqiqotchi hozirda tariqatdan saboq berishni da‘vo qiluvchilar, shuningdek, pirga qo‘l berib, o‘zini so‘fiy sanaydigan soxta tariqatchilar paydo bo‘layotganligini asoslab bergan. Ular pirga qo‘l bermagan kishini musulmon hisoblashmaydi. Soxta tariqatchilar bu sohani yaxshi o‘qib tushunmagan holda noto‘g‘ri xatti-harakatlar qilib, savob o‘rniga gunoh, martaba o‘rniga o‘zlariga malomat orttirmoqda. Vaholanki, tariqat yo‘liga kirishdan oldin shariat ahkomlarini puxta egallash shart.

